




ISSN: 2181-7774
4/2 (28) 2026

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

mahsus son





**LOYIHA RAHBARI VA
TASHABBUSKORI:**

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Toshkent davlat agrar universiteti

BOSH MUHARRIR:
OBLOMURADOV NARZULLO
NAIMOVICH

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI:**
SULTONOV KAMOLITDIN

IJROCHI MUHARRIR:
Nurmatov Baxtiyor

MAS'UL KOTIB:
Yakubov Shamshod

DIZAYNER-SAHIFALOVCHI:
Alimkulov Denislam

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yhatiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25 fevralda 1548-sonli
guvohnoma bilan qayta ro'yhatga
olingan.

Jurnal 2000 yil aprel oyidan tashkil topgan
jurnal bir yilda 6 marta chop etiladi.

Bosishga ruxsat etildi: 28.04.2026.
Qog'oz bichimi 60x84¹/₈
Offset usulida cosildi. Biyurtma №
Adadi: 100 nusxa.

«Agrar fani xabarnomasi» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati,
Qibray tumani, Universitet ko'chasi,
2-uy

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

№ 4/2 (28) 2026 (mahsus son) Ilmiy-amaliy jurnal

Tahrir hay'ati raisi:

Abdurahmonov Ibrohim
O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vaziri

Tahrir hay'ati a'zolari:

N.Oblomuradov
J.Lapasov
K.Sultonov
A.Abduvasikov
S.Boboyev
D.Mamadiyarov
X.Kimsanboev
Sh.Nurmatov
T.Ostonaqulov
X.Bo'riev
R.Sattarova
U.Ruzmetov
A.Xasilbekov
S.Ulug'ova
O.Nazarov
F.Xalilova
Sh.Abduganieva
G.Urinbaeva
O.Ergasheva
M.Sarimsoqov
U.Daniyarov
Sh.Kamilov
A.Batirova
X.B.Yunusov
M.X.Begmatova
A.A.Nurmiyozov
X.T.Boymurodov

A.Raximov
N.Kuchkarova
M.Mahammato'va
A.Musurmonov
Sh.Sarmanov
M.Yusupov
M.Faxrutdinov
E.Umurzakov
S.Djumaboev
I.Gorlova
I.Karabaev
B.Kamilov
L.Ostonova
B.Mamutov
S.Allanazarov
X.Xamroqulova
B.Shokirov
B.Atoev
N.Temirkulova
B.Xasanov
D.Turdiyeva
A.Yusupov
E.Berdibaev
Dj.Dj.Mamatqulov
Sh.Sh.Shernazarov
A.N.Egamqulov
B.S.Dustov
G.A.Suvonova

Ta'sischi:

Toshkent davlat agrar universiteti
Agrar fani xabarnomasi MCHJ

Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy,
ToshDAU.

Tel: (+99871) 260-44-95. Faks: 260-38-60.

<https://agrosience-tdau.uz>

Maqolada keltirilgan fakt va raqamlar uchun
mualliflar javobgardir.

ВЕСТИНИК АГРАРНОЙ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА

**BULLETIN OF THE AGRARIAN SCIENCE OF
UZBEKISTAN**

SAMARKAND REGION AND ITS ROLE IN URBAN LANDSCAPES.....	64
Erdanova SH.	
ATRIPLEX L. TURKUMI TURLARINING OZUQABOPLIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.....	68
Ruzieva M., Dzhumaeva Z.	
MORPHOLOGY OF POLLEN GRAINS OF THE MEDICINAL PLANT ALLOCHRUSA GYPSOPHILOIDES (REGEL) OF THE CARYOPHYLLACEAE FAMILY.....	71
Xudoyberdiyev F.X.	
APIACEAE OILASINING AYRIM VAKILLARI (<i>ELWENDIA PERSICA</i> , <i>ERYNGIUM CAERULEUM</i> , <i>FALCARIA VULGARIS</i> , <i>FERULA OVINA</i>) NING BOTANIK VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	74
Dillayev O.K., Kurbaniyazova G.T.	
QARSHI QARNABCHO'L HUDUDIDA <i>PEGANUM HARMALA</i> L. TURINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI, TARQALISHI VA DORIVOR AHAMIYATI.....	76
Abdullaev B.N., Qodirova G.A., Abdullaeva B.	
TAKRORIY MAKKAJO'XORI YETISHTIRISHDA TUPROQNING AGROFIZIKAVIY XOSSALARI VA DINAMIKASI.....	78
O'rolboyeva S.H.	
QALAMPIR YALPIZ (<i>MENTHA PIPERITA</i>) NING KIMYOVIY TARKIBI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.....	81
Ruziyeva D.J.	
TARKIBIDA FLAVONOIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VAULARNING AHAMIYATI.....	83
Шодиева З.Ш., Мукумов И.У.	
РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПОЛИКАРПИЧЕСКИХ ВИДОВ РОДА <i>FERULA</i> L. В НУРАТИНСКОМ БОТАНИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОМ РАЙОНЕ.....	87
Shukurova M. E., Xidirova O'S., Hamidova S.Q., Omonova M.A., Abdurashidova N. M.	
O'ZBEKISTON LIANALARI VA ULARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.....	90
Xujanov A.N., Sarabekov A.T.	
<i>HELICHRYSUM NURATAVICUM</i> KRASH. NING TARQALISH AREALI VA KIMYOVIY TARKIBI.....	93
Kuchkarova Z. D., Shernazarov SH.SH.	
SILYBUM MARIANUM URUG'LARIDAN OLINADIGAN YOG'NING BIOKIMYOVIY TARKIBI.....	99
Xoshimova Z.F.	
ODDIY TOG'JAMBIL – (<i>THYMUS VULGARIS</i>) O'SIMLIGI MAHSULOTINI TAYYORLASH VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	101
Абдуллаев Б.Н., Нишонов Н. Т.	
ДЕГРАДИРОВАННЫЕ ЗЕМЛИ: ИХ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ.....	103
Kamalova M. D.	
OLMALIQ SHAHRIDAGI DARAXT O'SIMLIKLARNING CHANGNI TUTISH QOBILIYATI.....	106
Axmedova M.E., Eshnazarova M.N., Sultonova K.R.	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI KO'PAYTIRISHDA FOTOSINTETIK PIGMENTLAR MIQDORINING O'ZGARISH DINAMIKASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI.....	109
Musurmonov S.E., Suyunova I.F., Sultonova K.R.	
IN VITRO SHAROITDA O'STIRILGAN <i>LAGOCHILUS INEBRIANS</i> O'SIMLIGIGA SHO'RLANISH VA SUV TANQISLIGI STRESSLARINING TA'SIRI HAMDA BIOPREPARATLAR YORDAMIDA TUPROQ IQLIM SHAROITIGA MOSLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	111
O'RMONCHILIK VA LANDSHAFT DIZAYN	
Boymurodov X.T., Djalilov F., S., Davronov B.O., Xasanov N.X., Mirzamurodov O.X., Sabaxiddinov B.S., Saidqulov J.R., Turexanov F.F.	
ZARAFSHON DARYOSI SOXILI BALIQCHILIK XO'JALIKLARI VA KANALLARIDA SORBICULIDAE OILASI CORBICULA COR TURINING TARQALISHINING QIYOSIY TAXLILI.....	115
Kenjibayeva G. S., Boymurodov X.T., Aliyev B.X., Jabborova T X., Bektashev SH.M., Эгамқулов А., Izzatullayev X.Z., Turniyozova N.R.	
QASHQADARYO SUV EKOTIZIMLARI MOLLYUSKALARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI.....	118
Suvonova G.A., Dustov B. S., Tolmasova N, Raximboyeva S.	
ALDROVANDA (<i>ALDROVANDA VESICULOSA</i> L.) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK AHAMIYATI.....	121
Kuldasheva SH.A., Bobonazarova S. N.	
BOYSUN TUMANI DAGI M25 GAZ KONIDA TEXNOGEN HODISALARNING EKOLOGIK MONITORINGI VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI.....	123

O'RMONCHILIK VA LANDSHAFT DIZAYN

UO'K: 502.7.(575.141)

Boymurodov X.T.¹, Djalilov F.², S., Davronov B.O.⁶, Xasanov N.X.³, Mirzamurodov O.X.¹,
Sabaxiddinov B.S.¹, Saidqulov J.R.⁵, Turexanov F.F.⁴.

¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

²Samarqand davlat pedagogika instituti

³Navoiy davlat universiteti.

⁴Samarqand davlat universiteti

⁵Jizzakh "SAMBHRAM University"

⁶Qarshi davlat universiteti

ZARAFSHON DARYOSI SOXILI BALIQCHILIK XO'JALIKLARI VA KANALLARIDA SORBICULIDAE OILASI CORBICULA COR TURINING TARQALISHINING QIYOSIY TAXLILI

ANNOTASIYA.

Ushbu maqolada Bivalve Linne 1758 sinfi Sardiiformes Ferussac, 1821 turkumi Sorbiculidae Gray, 1847 oilasi Corbicula Meqerle, 1811, urug'idan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turing ikki xil biotop: baliqchilik xo'jaligi hamda kanalda tarqalishiga suv muhiti omillari suvning harorati, suvdagi kislorod miqdori, neft mahsulotlarining ta'siri natijasida ularning chig'anoqlarining o'lchamiga, arealdagi populyatsiyalar zichligiga ta'sir etishi tahlil qilindi. Tadqiqot uchun material Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi va Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalidan yig'ilgan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turing chig'anoqlari o'rganildi.

Tayanch so'zlar: Suv ekosistemalari, peloreofil, ekologik omil, Unionidae, biotoplar, Corbicula cor.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Antropogen ifloslanish natijasida suv osti biotsenozlari tubdan o'zgarmoqda, mahalliy turlar o'rnini boshqa keng tarqalgan turlar egallamoqda. Ikki pallali mollyuskalar umurtqasiz hayvonlar orasida ifloslangan suvlarni tozalashda muhim o'rin tutadi. Ular suvni tanasi orqali o'tkazib, uni filtrlaydi, yani ushbu mollyuskalar tabiiy suv tozalovchilar hisoblanadi. Zarafshon vodiysi ikki pallali mollyuskalari turlarining biologik xilma-xilligi va endemik turlar sonining ko'pligi bilan boshqa hududlardan keskin farq qiladi. Bugungi kunda Sorbiculidae oilasi Corbicula cor turining baliqchilik xo'jaliklari va kanallarda tarqalishining qiyosiy taxlilini o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Gidrobiontlarni o'rganish bo'yicha xorijiy olimlardan James H.Thorp, (2011), Alanp Covich (1991), D.C.Aldridge (1999), P.Bouchet (2017), Huber Markus (2010), A.F.Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2011)lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [1,2,3]. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.V.Bogatov, Ya.I.Starobogatov (2004), V.V.Bogatov (2014), N.I.Andreyev, G.P.Alyoxina va boshqalar (2007), V.F.Panov et. al. (2009), M.O.Son (2009), L.N.Yanovich (2013) ilmiy izlanishlar o'tkazilgan[4,5,6]. Markaziy Osiyo suv omborlari fauna va florasini o'rganishga N.A.Stepanova, (1951, 1961); A.M.Muhammadiyev (1967); Z.I.Izzatullayev (2016, 2018, 2021); I.M.Mirabdullayev (2014, 2019, 2021); A. Kuzmetov (2017,2024) ; X.T. Boymurodov (2004, 2017, 2024); A.N.Egamqulov (2020,2024) ; B.N. Otaqulov (2021,2024) o'rganishgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Biz o'z tadqiqotlarimizni 2019-2025 yillarda Zarafshon daryosi soxilidagi baliqchilik xo'jaliklari va

kanallarda olib bordik. Baliqchilik xo'jaliklari va kanallardan 80 dan ortiq namunalar terildi, unda gidrabiontlarning 179 dan ortiq donalari uchradi. Ushbu gidrabiontlar gidrabiologiya va zoologik tadqiqotlarda foydalanadigan uslublari bilan o'rganildi. Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligidan (joy kordinatasi – 39°36'08.77"N 67°05'30.08"E) (MARS.ME android dasturi orqali aniqlandi.) Corbiculidae Gray, 1847 oilasi Corbicula Meqerle, 1811, urug'i Corbicula cor (Lamarck, 1818) turidan terildi. Urgut tumani O'ramas qishlog'i g'arbiy tomonidan oqib o'tuvchi darg'om kanali (joy kordinatasi – 39°24'33.22"N 67°14'57.85"E) atrofidagi baliqchilik xo'jaligidan materiallar terilgan.


Turlarni aniqlashda Izzatullaev Z.I., Boymurodov X.T. [1], Boymurodov X.T. [2], va ularga ekologik omillar ta'sirini o'rganishda Otakulov B.N. [3] uslublari foydalanildi. Ikki pallali mollyuskalarga ekologik omillar ta'sirini o'rganishda suvning harorati, suvdagi ozuqa moddalar miqdori, suvning minerallashuvi inobatga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Sorbiculidae oilasi Corbicula cor turi Zarafshon daryosi havzasidagi kanallar, suv omborlari va hovuzlarda chuqurligi 2,5-3,0 m gacha bo'lgan joylarida uchraydi. Chig'anog'i yuraksimon malla (sarg'ish) rangda, oldi va orqa qismi yumaloqlashgan, ichki devori oq rangda. Ko'pincha C. purpurea Rime va Colletopterum syreum sogdianum Kobelt lar bilan birga uchraydi. Bu tur tuxum qo'yuvchi hisoblanadi. Bahor kelishi va suv harorati ko'tarilishi bilan ko'payishi, rivojlanishi boshlanadi va u mart oyining ikkinchi yarmidan iyun oyigacha davom etadi. Old Osiyo turi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hamda Turkmanistonda, Ozarbayjonning janubi sharqida tarqalgan. Zarafshon daryosi havzasi Oqdaryo va Qoradaryolardan, Darg'om, Narpay kanallari va uning atrofidagi ko'l va hovuzlardan, Polvonariq, Dabusiyaariq, Po'latchi ariqlarda yashaydi. O'lchamlari ChB 23-25; ChU 24-28; ChK 15-19,2 mm. (1,2-rasm).

Tadqiqotlarimizda Corbicula cor (Lamarck, 1818) turi tarqalishi, ko'payishi va rivojlanishiga suvning harorati, suvdagi kislorod miqdori, suvning minerallashuvi va antropogen omillar kabi ekologik omillar tasiri o'rganildi hamda adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan taqqoslandi. O'rganilgan ikkita biotopda ham Corbicula cor (Lamarck, 1818) ongsiz ravishda introduksiya qilingan, Zarafshon daryosining oqimi bilan ushbu ko'rsatilgan biotoplarda tarqalgan.

Quyidagi biotoplar: Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi hamda Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalida tarqalgan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turi ekologiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz. Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligida taqalgan ikki pallali mollyuskalar Zarafshon daryosining oqimi bilan ushbu hududda tarqalgan. Chig'anog'i yuraksimon malla rangda, oldi va orqa qismi yumaloqlashgan, ichki devori oq rangda, peloreofil ekologik guruhini hosil qiladi. Ushbu biotopdan suv namunalari olib tahlil qilinganda suv harorati 14,8-15,2 °S, suvdagi kislorod (O₂) 3,2-3,6 mg/l, Neft va neft maxsulotlari 0,04-0,06 mg/l, suvdagi kalsiy (Ca) miqdori 12-14 mg/l, O'lchamlari ChB 20-23; ChU 21-24; ChK 15-17 mm.



1-rasm. Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligidagi Corbicula cor (Lamarck, 1818) chig'anog'i: A-ichki tomoni, B-orqa tomoni.

Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalida tarqalgan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turi Zarafshon daryosining oqimi bilan ushbu hududda tarqalgan. Chig'anog'i yuraksimon sarg'ish rangda, oldi va orqa qismi yumaloqlashgan, ichki devori oq rangda, peloreofil ekologik guruhini

hosil qiladi. Darg'om kanalidan suv namunalari olib tahlil qilinganda suv harorati 15,0-15,4 °S, suvdagi kislorod (O₂) 3,6-3,8 mg/l, Neft va neft maxsulotlari 0,03-0,05 mg/l, suvdagi kalsiy (Ca) miqdori 13-15 mg/l, O'lchamlari ChB 22-24; ChU 23-26; ChK 16-19 mm ni tashkil etishi aniqlandi.



2-rasm. Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalidagi Corbicula cor (Lamarck,1818) chig'anog'i: A- orqa tomoni, B-ichki tomoni.

Barcha materiallarni o'rganish natijalariga ko'ra, ikki pallali mollyuskalarning chig'anoqlari, biomassasi hamda ularning arealdagi populyatsiyalar zichligiga suv harorati, suvdagi kislorod, Neft va neft maxsulotlari, suvdagi kalsiy (Ca) va boshqa atrof-muhitning ekologik omillariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Ekologik omillar ta'sirida ikki pallali mollyuskalarning chig'anoqlari, biomassasi hamda ularning arealdagi populyatsiyalar zichligi o'zgarib borishini qo'yidagi natijalarga ko'ra asoslash mumkin. Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi suvlari tarkibida neft maxsulotlarining ko'pligi, kalsiy va kislorod miqdorining kam ekanligi Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanali suvlarida esa neft maxsulotlarining kamligi, kalsiy va kislorod miqdorining yetarli miqdorda ekanligi Corbicula cor (Lamarck,1818) ning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, shu sababli Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi biotoplarida tarqalgan Corbicula cor (Lamarck,1818) ning chig'anoqlari o'lchami Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalida tarqalgan Corbicula cor (Lamarck,1818) chig'anoqlari o'lchamiga nisbatan kichikroq ekan aniqlandi (2-jadval).

1-jadval.

Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi hamda Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalida tarqalgan Corbicula cor (Lamarck,1818) ning chig'anoqlari o'lchami.

№	Yashash joylari	ChB	ChU	ChQ
1	Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi	20-23	21-24	15-17
2	Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanali	22-24	23-26	16-19

2-jadval.

Corbicula cor (Lamarck,1818) ning zichligining o'zgarishiga suv muhiti omillarining ta'siri.

№	Yashash joylari	Suv harorati (°S)	Suvdagi kislorod (O ₂) (mg/l)	Neft maxsulotlari (mg/l)	Zichligi (1 m ²)
1	Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi	14,8-15,2	3,2-3,6	0,04-0,06	2,1-2,5
2	Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanali	15,0-15,4	3,6-3,8	0,03-0,05	2,5-3,0

Suv haroratining past bo'lishi ikki pallali mollyuskalarning zichligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, suvdagi harorat past darajada bo'lishi suvda gidrobiont organizmlar va suv o'tlarining rivojlanishi, fotosintez

jadalligining pasayishi hamda ikki pallali mollyuskalar uchun ozuqa miqdorining kamayishiga olib keladi. Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligida (14,8-15,2 °S,) Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanaliga (15,0-15,4°S) nisbatan suv haroratining pastligi ikki pallali mollyuskalarning zichligining ham pasayishiga olib kelganligi aniqlandi.

Xulosa. Bivalve Linne 1758 sinfi Sardiiformes Ferussac, 1821 turkumi Sorbiculidae Gray, 1847 oilasi Corbicula Meqerle, 1811, urug'idan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turing ikki xil biotop: baliqchilik xo'jaligi hamda kanalda tarqalishiga suv muhiti omillari suvning harorati, suvdagi kislorod miqdori, neft mahsulotlarining ta'siri natijasida ularning chig'anoqlarining o'lchamiga, arealdagi populyatsiyalar zichligiga ta'sir etishi tahlil qilindi. Tadqiqot uchun material Tayloq tumani Bog'izog'on mahallasidagi baliqchilik xo'jaligi va Urgut tumani O'ramas qishlog'idan oqib o'tuvchi Darg'om kanalidan yig'ilgan Corbicula cor (Lamarck, 1818) turing chig'anoqlari o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Зарафшон дарёси ҳавзаси икки паллали моллюскалари.- Самарқанд:СамДУ, 2009.-Б.21.
2. Боймуродов Х.Т. Ўзбекистон сув ҳавзаларининг иккипаллали (Bivalvia: Unionidae, Corbiculidae) моллюскалари. Биология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2017. –Б.28.
3. Отакулов Б.Н. Қашқадарё соҳили сув типларида (Bivalvia: Unionidae, Pisididae, Euglesidae, Corbiculidae) иккипаллали моллюскалар тарқалишига абиотик омиллар таъсири. Биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Нукус, 2021. –Б.9.
4. Терентьев П. В., Ростова Н.С. Практикум по биометрии. – Л.: 1977. -105 с.
5. Боймуродов Х. Зарафшон дарёси ҳавзаси ариқлари иккипаллали моллюскаларининг экологик гуруҳлари ва тарқалиши хусусида / Кимёгар илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2002. – Б.59.
6. Boymurodov Kh.T. The degree of content of natural radionuclides in mollusks // Uzbek Biological journal. –Ташкент, 2011. –№5. –Р. 41-42
7. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Зарафшон дарёси соҳили иккипаллали моллюскаларининг зоогеографик таҳлили / Иқтисодий географиянинг регионал муаммолари. Илм. конф. тез. – Самарқанд, 2002. 163 б.
8. Izzatullaev A.I. and Boymurodov Kh.T. 2002: Information about bivalve mollusk fauna, ecology and extension of fish farm in Chelek district. SamSU, Informational Scientific research journal 2: 82–83.

UDK. 577. 472: 626. 80.

Kenjibayeva G. S¹., Boymurodov X.T.²., Aliyev B.X.²., Jabborova T X³., Bektashev SH.M⁴., Эгамқулов А²., Izzatullayev X.Z¹., Turniyozova N.R⁵.

¹ M. Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universiteti.

² Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

³ Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

⁴ O'zbekiston fanlar akademiyasi Respublika termentlarga qarshi kurashish ilmiy ishlab -chiqarish markazi

⁵ Samarqand davlat pedagogika instituti

QASHQADARYO SUV EKOTIZIMLARI MOLLYUSKALARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI

Abstract. Among the bivalves in the river, 9 species of peloreophiles (Corbicula cor, C. purpurea, Sinanodonta puerorum, S. orbicularis, Euglesa heldreichi C. fluminalis, Corbiculina tibetensis, C. ferghanensis, Sinanodonta gibba,) are distributed, which account for 66.6% of the total number of